

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

“ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR

Eminov N.

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Mustaqillik yillarida “Alpomish” dostoni asosida yaratilgan spektakllar garchi folklorga tayangan bo‘lsa-da, davr talabidan kelib chiqib, jamiyat oldiga qo‘yilgan qadriyatlarga hamda milliy o‘zlikka munosabat nuqtayi-nazaridan talqin qilindi. Dramturg va rejissyorlar bu borada o‘z so‘zlarini aytish uchun ham eposga yondashdilar. Mazkur maqolada “Alpomishning qaytishi” spektaklining turli yillarda sahna yuzini ko‘rgan variantlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ariya, duet, folklor, monumental, baxshi, pyesa, dramaturg.

Аннотация: Хотя спектакли, созданные в годы независимости на основе эпоса “Алпамыш” опирались на фольклор, исходя из требований времени, отражали отношение к ценностям, поставленным перед обществом, и национальному самосознанию. с точки зрения Драмург и режиссеры подошли к эпосу, чтобы высказать свое мнение по этому поводу. В данной статье анализируются варианты спектакля “Возвращение Алпомыш” вышедшие на сцене в разные годы.

Ключевые слова: ария, дуэт, фольклор, монументальный, бахши, пьеса, драматург.

Annotation: Although the performances created during the years of independence based on the epic "Alpamysh" were based on folklore, they were interpreted in accordance with the requirements of the time, from the point of view of the attitude to the values set before society and national identity. The playwright and directors approached the epic to express their views on this matter. This article analyzes the staged versions of the play "The Return of Alpomish" in different years.

Keywords: aria, duet, folklor, monumental, bakhshi, play, playwright.

Kirish. Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodiyoti va folklorga yangicha yondashuv kuzatilmoqda. Ilgari qahramonlar umumlashtirilgan holda tasvirlangan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy usullar ularning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi, urf-odatlar va qadriyatlari chuqur tahlil qilinishiga imkon bermoqda. Bu esa, o‘z navbatida, folklor asarlarining mazmunini yanada boyitib, ularga zamonaviy tafakkur nuqtayi nazaridan baho berishga yordam beradi. Bu jarayonda yangi texnologiyalar va imkoniyatlar muhim rol o‘ynamoqda. Ilgari faqat matnli manbalarga asoslangan tadqiqotlar endilikda videokuzatuvlar, raqamli arxivlar va

multimedia materiallari yordamida boyitilmoqda. Qahramonlarni shunchaki takrorlash o'rniga, ularning xarakterlari, harakatlari ortidagi sabablar va psixologik holatlari tahlil qilinmoqda. Bu esa, asarlarga yangi qirralar qo'shadi. Folklor qahramonlari va syujetlari zamonaviy muammolar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar kontekstida talqin qilinmoqda. Bu esa, yosh avlodning folklorga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu yondashuv tufayli xalq og'zaki ijodiyoti nafaqat tarixiy yodgorlik, balki doimiy ravishda yangilanib turadigan, bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan noyob madaniy merosga aylanmoqda.

Asosiy qism. Teatr o'zining an'analariga sodiq qolgan holda mustaqillik yillarida ham eposga yondashdi. Albatta bu qarash ilgarilaridan farq qilardi. Ilgari epik manbaga Sobiq Ittifoq belgilagan sotsialistik realizm nuqtayi-nazaridan yondashilgan bo'lsa, mustaqillik davrini bergan imkoniyatlari bu boradagi yondashuvlarni o'zgartirdi. Bu o'rinda "Alpomish"ning 1000 yilligi munosabati bilan Respublika teatrlarida, xususan Namangan viloyat teatrida "Alpomishning o'q-yoyi" (muallif A.Jabbor, rej. K.Yo'ldoshev), Respublika Yosh tomoshabinlar teatrida "Og'a-ini yot bo'lsa" (muallif N.To'laxo'jayev, rej. A.Xo'jaquliyev), Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatrida "Alpomish" (muallif J.Mahmud, rej. Sh.Yusupov) spektakllari sahnalishtirildi. Ular orasida dramaturg Usmon Azimning "Alpomishning qaytishi" pyesasi alohida o'rin tutdi. Asar 1999 yilda yozilgan bo'lib, o'sha yilning o'zida Surxondaryo viloyat musiqali drama teatrida rejissyor Mansur Ravshanov, Andijon viloyat musiqali drama teatrida Valijon Umarov, 2001-yilda esa Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama teatrida rejissyor V.Umarov tomonidan muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Garchi bunga qadar 1949-yilda Muzaffar Muhammedov tomonidan Sobir Abdulla asari "Alpomish" sahnalashtirilgan bo'lsa-da, mazkur spektakl undan butunlay farq qilardi.

Ushbu spektaklda afsonaviy qahramon qiyofasini jonlantirishda insoniy munosabatlar, tahlikali jarayonlar, hayotiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Shu sabab spektakl o'tmish voqealar bayoni emas, balki zamonamizda uchratish mumkin bo'lgan hodisalar, insoniy munosabatlarni aks ettiradi.

Mazkur musiqiy drama xalq og'zaki ijodi musiqasidan, milliy qo'shiq va ohanglardan o'rinli foydalanilganligi bilan ajralib turuvchi alohida yirik asardir.

Darhaqiqat, bastakor To'xtasin Jalilov dramaturg Sobir Abdulla g'azallariga yaratgan musiqalari xalq og'zaki ijodi namunalaridan olinib, chiroyli kuylar bilan bastalangan. Bu ariya va duetlar xalq orasida ommalashib ketgan bo'lsa-da, yangi asarda templar o'zgargan holda bugungi davrga hamohang musiqa yaraladi hamda ushbu qo'shiqlar bevosita solistlarni alohida ijrolariga aylanib ketdi. Bu o'z vaqtida

sahnaviy qahramonlar tasvirini berishda, ularning ichki dunyosi, siyratini tasvirlashda qo‘l kelgan hamda spektaklning tomoshaviyligi oshirgan.

Rejissyor va dramaturg doston ruhiyatini saqlagani holda xalq orasida mashhur bo‘lgan kuy, qo‘shiq, musiqiy ohanglar topa olganlar. Zero, dostonni sahnalashtirishda xalq kuy-qo‘shiqlarining ijro etilishi, qahramonlar ichki kechinmalarining kuy jo‘rovozligidagi ijrosi voqealarning ta’sirli talqin etilishiga imkon bergan. Spektakl uchun musiqalarni iqtidorli bastakor Bahrulla Lutfullayev bastalagan. Bastakor asar g‘oyasidan kelib chiqqan holda xalq ruhiyati, taqdiri ufurib turgan xalqona kuy va ohanglar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. B. Lutfullayev yozgan ariya va duetlardagi milliy lirik ohanglar qahramonlar badiiy obrazini yorqinlashtirishga xizmat qilgan.

Rejissyor avvalo, sahnada ertakni jonlantirishga intilgan. Spektaklda pantomima o‘ynaladi. Jumladan, spektakl prologida qizaloq Barchinoy va bolakay Alpomishning muhabbat ramzi sanalgan olmani bir-birlariga otib o‘ynashi spektakl jozibasini oshirgan. Olma xalq ijodiyotida sevgi ramzi bo‘lib, yigit sevgan qiziga otgan olmasini qiz ushlab olgudek bo‘lsa, uni sevgisini qabul qiladi. Spektaklda xalq ijrochiligi, tomoshasi aks etganini ko‘rish mumkin.

Mustaqillik yillarida “Alpomish” dostoni asosida yaratilgan spektakllar garchi folklorga tayangan bo‘lsa-da, davr talabidan kelib chiqib, jamiyat oldiga qo‘yilgan qadriyatlarga hamda milliy o‘zlikka munosabat nuqtayi-nazaridan talqin qilindi. Dramaturg va rejissyorlar bu borada o‘z so‘zlarini aytish uchun ham eposga yondashdilar.

Usmon Azim dostonning eng asosiy mag‘zini, gapini bugungi kun jarangdorligi bilan bog‘lab bergan. Masalan, sevgi, xiyonat, bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbat va bularning bari milliy qiyofada aks etishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Garchi teatrda Sobir Abdulla asari bo‘yicha tayyorlangan pyesa mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, yangi asarga murojaat etishdi. Zero, mavjud “Alpomish”ning mazmuni, sotsrealizmning ta’siri, quvvati, qudrati, ideologiyasi, og‘ir ijrolar, musiqalaridagi tempning juda ham vazminligi ko‘zga tashlangan. Mustaqillik davrida tamoman sotsrealizmdan voz kechildi. Natijada aktyorlar talqinida temp, ijro o‘zgardi. Zero, u davrda qahramonona-romantik yo‘nalishda talqin etilgan bo‘lsa, yangi davrda psixologik talqin ustuvorlik qildi. Bugungi davr esa dostonni yangicha ruh, yangicha nigoh bilan o‘qishni talab etardi. Dramaturg Usmon Azimning zamonaviy asardagi Alpomish, Barchinoy obrazlari faqatgina epik qahramon emas, balki u zamondoshimiz bo‘lib qoldi. Erkakni millat g‘ururi, ornomusi ekanligi, ayol kishi vafo, sadoqat timsoli qilib ko‘rsatildi. Ushbu spektakl millati, xalqiga bo‘lgan hurmatni ifoda etish timsoli bo‘ldi. Bu narsalar garchi

1949-yilda sahnalashtirilgan “Alpomish” asarida ham mavjud bo‘lsa-da, lekin unga sotsrealizm soya solib turardi. Zero, Mahmudjon G‘ofurov o‘ziga xos maktab yaratgan yoki Farog‘at Rahmatova ijrodagi talqinning originalligiga erishgan bo‘lsa-da, yangi davr boshqacha ijroni talab qilardi va mana shu ijro Mirza Azizov, Boir Xolmirzayev, Zulayho Boyxonovalarda quyidagicha aks etadi.

Ushbu spektaklning asosiy qahramoni Alpomish obrazi o‘ta murakkab va ko‘p jihatdan mas’uliyatlidir. Rejissyor Valijon Umarov Alpomish obrazini aktyorlar Boir Xolmirzayev hamda Mirza Azizovlarga topshirgan. Bu ikkala aktyor ijrosi haqida teatrshunos olim Oltinoy Tojiboyeva quyidagilarni bayon qiladi: “Bu ikki talqin biri ikkinchisining takrori emasligi bilan diqqatga sazovordir. Mirza Azizov qahramoniga gavda tuzilishi bilan ko‘proq yaqin bo‘lib, uning salobatini ko‘rsata bilgan hamda vokal imkoniyatining kattaligi bilan ovozga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Boir Xolmirzayev xalq qahramonining botiniy tomonlarini aks ettirishga va dramatik o‘rinlariga katta ahamiyat bergan” [1; 117]. Aktyorlar bir-birini ijrosiga o‘xshamaydigan, Alpomishning ikki xil tabiatli siymosini yaratishga erishganlar. Haqiqatan, aktyorlar o‘z rolining mohiyatini to‘g‘ri tushunib, ehtiros bilan o‘ynaganlar. Ammo rejissyor Valijon Umarov aktyor Mirza Azizovni kelbati, tashqi ko‘rinishi afsonaviy Alpomishni yodga solgani bois ko‘proq undan foydalanadi. Mazkur asardagi Alpomish obrazi Mirza Azizov talqinida devqomat, salobatli, qat’iyatli, mard, qo‘rqmas, yovga qiron keltiruvchi alp qahramon, sabr bardoshli inson sifatida gavdalanadi. Bir so‘z bilan aytganda aktyor bosh qahramonning ichki dunyosini, qalbi, yuragini, o‘y va fikrlarini katta mahorat bilan tasvirlab bergan. Bu esa uni ertak va dostonlarda uchrovchi xalq botiri qiyofasiga yaqinlashtirgan. Bundan chiqdiki, aktyorning harakatlari, keng kelbatli ko‘rinishi afsonaviy qahramonga xos mahobatni talqin qilsa, uning ijrosidagi qo‘shiqalar xalqiga, yoriga, ota-onasi va farzandiga mehr-muhabbatini ifodalaydi. M.Azizov ijro etayotgan ariyalarida ovoz imkoniyatlarini ham to‘laqonli ko‘rsata olgan. Bu obraz haqida O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova shunday fikr bildiradi: “Mirza Azizov sahnada, haqiqatan ham o‘z qahramoni holatiga kira olgan. Ayniqsa, u musiqali drama aktyori ekanligi uchun ovozga ko‘proq e’tibor qaratgan. Uning kelbatli tashqi ko‘rinishi, qiyofasi bir-biriga bog‘lanib, yaxlit bir xarakterlarni vujudga keltiradiki, natijada tomoshabin ko‘z o‘ngida jonli Alpomish gavdalanadi” [5]. Bundan kelib chiqadiki, aktyor M.Azizov xalq ijodiga aynan shu tariqa yaqinlashgan.

Pyesaning eng go‘zal lavhalaridan biri Qalmoqqa ketish oldidan Alpomish hamda Barchinoyning vidolashuv sahnasidir. Mazkur jarayon baxshining so‘zi hamda aktyorlarning plastik xatti-harakatlarida jonlanadi.

Bu sahna yetuk san'atkorlar Mirza Azizov va Zulayho Boyxonova tomonidan yuksak did bilan yaratilgan. Aktyor ayniqsa, Barchin bilan xayrlashish sahnasida:

Alpomish:-Barchin, yaxshilab quloq sol!..Chaqaloq dunyo yuzini ko'rib, farzandimizga ilk bor ko'ksingni tutganingda, hozir aytadigan gaplarimni vujudu ruhingni to'lg'ozib takrorla: elingni oti- Qo'ng'irot, de!

Barchin:- Qo'ng'irot, deyman...

Alpomish:-Tug'ilgan yurting Boysun de!

Barchin:- Boysun, deyman..

Alpomish:- Otangning oti Alpomish, de!

Barchin:- Alpomish deyman, biy bobomning uli, Alpomish deyman!

Alpomish:- Agar yetti oyda qaytmasam...

Barchin:- Yetti yil kutaman!

Alpomish:- Yetti yilda qaytmasam...

Barchin:- -Yetti yuz yil kutaman!

Alpomish:- Yetti yuz yilda qaytmasam...

Barchin:- Yetti dunyo turguncha kutaman!

Buni qarangki, tomoshabin qalbida o'zbek millati, xalqiga bo'lgan munosabati, bolajonligi, qolaversa, ikki sevishgan yorning bir-biriga bo'lgan sadoqatini his etib turadi. Vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'ulari uyg'onadi, unga mehri jo'shadi.

Suhbatlarning birida M.Azizov ushbu obraz haqida quyidagilarni bayon qiladi: "Alpomish roliga oxirgi bo'lib qo'shilib qoldim. Postanovka payti menga rol berishmagan. Marhum aktyor Nasrullo Rustamov bilan Boir Xolmirzayev ijro etishgan. Lekin mening juda ham o'ynagim bor edi. Rejissyor Valijon Umarov spektaklni bir yarim oy repetitsiya qilganidan keyin meni ham sinab ko'rmoqchi bo'ldi va keyin menda kelib to'xtadi. Asosiy ishtirokchilaridan biriga aylanib qoldim. Rolni o'n besh, yigirma kun ichida tayyorlab tomoshabin hukmiga havola qildim. Ayniqsa, qahramonning "Alpomishsiz el bo'lmaydi, biy bobomning uli",- degan so'zining o'zidayoq aktyorman deb his qilgan man-man degan inson ham ijro paytida ko'zidan yosh oqib ketadi. Aslida bu gaplarni yig'lamasdan, jasorat bilan mag'rur turib gapirish kerak. Lekin men har doim ushbu sahnada bu so'zlarni gapirishga qiynalardim. Albatta, bu borada dramaturg Usmon Azimning mahoratini alohida qayd etib o'tish lozim. Dramaturg asar tilini xalqona ohangda yaratgan. Har bir obrazda joziba va sehr bor. Buni ijro etayotganingda ham sezasan" [6].

Valijon Umarovdan farqli o'laroq, Surxondaryo viloyat teatri sahnasida rejissyor Mansur Ravshanov muqaddima qismiga baxshining doston kuylashini kiritadi. Parda baxshining doston kuylashi bilan ochilib, eng so'ngida doston xotimalashida yopiladi. Suhbatlarning birida rejissyor Mansur Ravshanov shunday deydi: "Men "Alpomishning qaytishi" spektaklida sahnaga xalq baxshisini chiqarganman. Unda ikkita ya'ni xalq baxshisi hamda professional teatr aktyor ijodini yonma-yon qo'yishga harakat qilganman" [3].

Spektaklning har bir ko'rinishida rejissyorining mahorati, asar talqinida yangi vositalar izlab topganligi yorqin namoyon bo'lib turadi. Spektakl haqida yozilgan taqrizda muallif M.Sharipov yozadi: "Rejissyorning maqsadi – xalq qahramoni Alpomishning yoriga, xalqiga cheksiz muhabbati, ona Vatanga sadoqati, beqiyos botirligini tarannum etishdan iborat bo'lgan. Spektaklda ko'tarinki ruhning hukmronligi sezilib turadi. Undagi obrazlar ham ana shunday ko'tarinki ruhga yo'g'rilgan holda namoyon bo'ladi" [2; 46]. Rejissyor asar mavzusi va xarakterini ochish maqsadida romantik qahramonlik ruhdagi obrazlarni bo'rttirib ko'rsatishga alohida e'tibor qaratgan. Shu bois Alpomish obrazi spektakl voqealari davomida xalq qahramonligi namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqda teatrshunos Oltinoy Tojiboyevani keltirgan fikrlari o'rinli: "Mansur Ravshanov spektaklda tabiiylikka e'tibor qaratish, uni tomoshabinga yaqinlashtirish maqsadida vohaga xos qadim urf-odatlar, liboslardan o'rinli foydalangan, qolaversa Surxondaryo shevasini saqlab qolgan".

Surxondaryo teatrida Hamid Oripov boshqa teatlardagi hamkasblariga nisbatan Alpomishni ko'proq qahramonona-romantik tarzda talqin qiladi. O'z navbatida ijroda asosan monumentallikka intilgani seziladi. Bunga rejissyor M.Ravshanov pyesani ko'tarinki ruh va qahramonona-romantik uslubda talqin qilganligi imkon bergan.

Bular orasida Muqimiy teatri solisti Boir Xolmirzayev talqini alohida o'rin tutib, aktyor og'zaki nutqida bevosita xalq baxshilariga yaqinlashgan. Aktyorda musiqiy ovozda avj pardalar yetishmasligi sabab ijroda ko'proq so'zga yaqinlashishga asosiysi musiqali drama imkoniyatlaridan kelib chiqib o'z qahramonining ruhiyati, ichki kechinmalarini ko'rsatishga uringan. Suhbatlarning birida Boir Xolmirzayev Alpomish obrazi haqida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Avvalo men ushbu obrazni yaratishda sahna nutqiga juda katta e'tibor berganman. Usmon Azimning tili o'ziga xos. Uni Surxondaryocha talaffuzi bor, men yaxshi ko'raman. Dramaturgda mazza qilib o'ynaydigan jihatlari ko'p. Aktyorga to'laqonli material beradi. Bu dramaturgning kuchi, mahorati deb o'ylayman. Asarda "Otangizning oti nima?" degan Yodgor bilan dialogi bor. O'zi tildan

quyilib keladi” [4]. Demakki, aktyorlarning biri botiniy tomonidan, ikkinchisi ko‘proq zohiniy tomoniga e’tibor qaratgan.

Spektakldagi Barchinoy obrazi mahoratli aktrisa O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova tomonidan sevgi, vafo timsoli sifatida aks etgan. Garchi aktrisa tashqi ko‘rinishidan alp qizga xos salobatga, qomatga ega bo‘lishiga qaramay, mazkur obrazda u tarixiy afsonaviy qahramon talqinini bugungi tomoshabin didiga, qarashlariga yaqinlashtirgan. Uning qahramoni olis o‘tmishdagi afsonaviy obraz emas, balki bugungi kun tomoshabiniga tushunarli bo‘lgan, unga o‘z navbatida andoza bo‘la oladigan ishq vafo siymosi tarzida gavdalanadi.

1949-yilda sahnalashtirilgan spektaklda Farog‘at Rahmatova hamda Mahmudjon G‘ofurovlar Barchinoy va Alpomish obrazlarini mahorat bilan yaratganliklari teatr tarixidan ma’lum. Biroq mazkur obrazlardagi monolitlik, monumentallik, musiqiy ijrolardagi vazminlik, musiqa tempining o‘ta zalvorliligi seziladi. Yangi talqinlarda esa M.Azizov, B.Xolmirzayev, Z.Boyxonovalar ijrosida ana shu jihatlar tubdan o‘zgartirilgan. Obrazlar tarixiy, afsonaviy qiyofasi bilan cheklanmay, zamonaviy tomoshabinga yaqinlashtirilgan. Bunga pyesadagi monolog va dialoglar, musiqadagi ritmning xarakteri ham katta imkon bergan. Rejissyor V.Umarov tarixiy afsonani olis ajdodlar haqida hikoya qiluvchi o‘tmish lavhasi tarzida emas, balki zamondoshlarni o‘ylashga tortuvchi, mushohadaga undovchi masalalarni talqin etgan asar sifatida sahnalashtiradi. Uning spektakli “Alpomish” xalq dostonining tub ma’no-mag‘zini ifodalash, qadriyatlarimiz haqida yangi fikr, gap, mushohadani o‘rtaga tashlashni bosh g‘oya sifatida ilgari suradi. Shuning uchun Alpomish va Barchinoy obrazlari sevgi-vafo timsoli, yurt-elga muhabbat, vatanga sadoqat ramzi bo‘lib aks etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiboyeva O. Epos san’at ko‘zgusida. – Toshkent: O‘zDSI, 2009. – B.117.
2. Sharipov M. Alpomishning qaytishi. // “Teatr”, 2001-yil, 4-son, 46-b.
3. O‘zbekiston xalq artisti Mansur Ravshanov bilan suhbatidan 2021-yil, 19-sentyabr.
4. O‘zbekiston xalq artisti Boir Xolmirzayev bilan suhbatidan 2015-yil, 17-fevral.
5. O‘zbekiston xalq artisti Zulyho Boyhonova bilan suhbatidan 2015-yil, 6-mart.
6. O‘zbekiston xalq artisti Mirza Azizov bilan suhbatidan 2015-yil, 27 -fevral.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIW SHÍLÍGÍNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN‘ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

